

**UYUSHMAGAN YOSHLARNI KASB-HUNARGA
YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

Sultanov Alijon Quziyevich,

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonining psixologik determinantlari tahlil qilingan. Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy motivatsiyasi, o‘zini anglash darajasi hamda atrof-muhit omillarining kasb tanlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, ularni mehnat bozoriga moslashtirishda psixologik yondashuvlar va professional yo‘naltirish mexanizmlarining samaradorligi ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari uyushmagan yoshlar bilan ishlashda psixologik yondashuvni kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: uyushmagan yoshlar, kasb tanlash, psixologik determinantlar, professional yo‘naltirish, motivatsiya, mehnat bozoriga moslashuv, ijtimoiy moslashuv

Аннотация. В данной статье анализируются психологические детерминанты процесса профориентации неорганизованной молодежи. Освещена роль социальной адаптации молодежи, личностной мотивации, уровня самосознания и факторов окружающей среды в выборе профессии. Также на научной основе рассмотрена эффективность психологических подходов и механизмов профессиональной ориентации в их адаптации к рынку труда. Результаты исследования показывают необходимость усиления психологического подхода в работе с неорганизованной молодежью.

Ключевые слова: неорганизованная молодежь, выбор профессии, психологические детерминанты, профессиональная ориентация, мотивация, адаптация к рынку труда, социальная адаптация

Abstract. This article analyzes the psychological determinants of the

process of vocational guidance of unorganized youth. The role of social adaptation, personal motivation, the level of self-awareness of young people, and environmental factors in choosing a profession is highlighted. Also, the effectiveness of psychological approaches and mechanisms of professional orientation in their adaptation to the labor market is considered on a scientific basis. The research results indicate the need to strengthen the psychological approach in working with unorganized youth.

Keywords: *unorganized youth, career choice, psychological determinants, professional orientation, motivation, adaptation to the labor market, social adaptation*

Kirish. Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yosh avlodning kasb tanlovi va mehnat bozoriga moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, uyushmagan, ya'ni rasmiy bandlikdan tashqarida qolgan yoshlarning soni ortib borayotgani ularni samarali kasb-hunarga yo'naltirish va ijtimoiy moslashuviga oid muammolarni yanada dolzarblashtirmoqda. Bunday sharoitda ushbu toifaga mansub yoshlar bilan tizimli va psixologik asoslangan ishlash zarurati kundan kunga ortib bormoqda.

Uyushmagan yoshlar ko'pincha kasbiy maqsadlarining noaniqligi, motivatsiya yetishmasligi, o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi va tashqi muhit omillarining salbiy ta'siri sababli o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olmaydilar. Shunday ekan, ularni to'g'ri kasb-hunar tanlashga yo'naltirishda faqatgina tashkiliy yoki iqtisodiy choralar emas, balki chuqur psixologik yondashuv zarur hisoblanadi.

Mazkur maqolada aynan shu yo'nalish — uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda psixologik determinantlarning (shaxsiy motivatsiya, o'zini anglash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va boshqalar) o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotdan maqsad — yoshlarning kasbiy yo'nalishini shakllantirishda psixologik omillarni aniqlash va samarali yo'naltirish mexanizmlarini ishlab chiqishga ilmiy asos yaratishdan iborat.

Uyushmagan yoshlar kimlar? Uyushmagan yoshlar deganda:

- Rasmiy mehnat faoliyatiga ega bo'lmagan,
- O'qish tizimidan chetda qolgan,
- Ishsiz yoki vaqtinchalik band bo'lgan,
- Ijtimoiy va iqtisodiy tizimdan chetlatilgan yoshlar nazarda tutiladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishda quyisagi psixologik yondashuvlar kerak:

1. Individual yondashuv – har bir yoshning shaxsiy xususiyatini hisobga olish.
2. Rivojlantiruvchi suhbatlar va treninglar – kasbiy o'zini anglashni rivojlantirish.
3. Kasbiy testlar va diagnostikalar – qiziqishlar va qobiliyatlarni aniqlash.
4. Rol o'yinlari va stajirovkalar – amaliy muhitda o'zini sinab ko'rish imkoniyati.
5. Professional maslahatlar – psixologlar, trenerlar, bandlik mutaxassislaridan yo'l-yo'riq olish.

Bu toifadagi yoshlar ko'pincha psixologik noaniqlik, maqsadsizlik, o'zini past baholash, xavfli guruhlar ta'siriga tushib qolish kabi holatlarga duch keladi.

Yoshlar har qanday jamiyatning eng faol, ijodkor va istiqbolli qatlamidir. Ammo ularning jamiyatdagi o'rnini topishi, iqtisodiy faol kuch sifatida shakllanishi ko'plab omillarga, xususan, ularning to'g'ri kasb tanlashi va mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga bog'liq. Ayniqsa, uyushmagan yoshlar — ya'ni o'qimaydigan, ishlamaydigan, rasmiy bandlik tizimidan chetda qolgan yoshlar — jamiyatda ijtimoiy xavf ostidagi toifa sifatida e'tiborni talab qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayrim mintaqalarda uyushmagan yoshlar soni ortib bormoqda. Bu holat ularning iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy inqirozlarga duch kelish xavfini oshiradi. Shu sababli ularni kasb-hunarga yo'naltirish, bu yo'lda individual va psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish

nihoyatda muhimdir.

Uyushmagan yoshlar kasb tanlashda qiynalishining sabablari:

1. Informatsion bo'shliq – kasblar haqida yetarli ma'lumotga ega emaslik.
2. Ijtimoiy bosim – atrofdagilar tanlovini tan olish yoki majburiy yo'nalishlar.
3. Psixologik noaniqlik – o'z imkoniyatlarini aniqlay olmaslik.
4. Resurs yetishmovchiligi – malaka olish uchun moddiy imkoniyatning yo'qligi.
5. Salbiy ijtimoiy muhit – bezorilar, ishsizlik, omadsizlikdan qo'rquv.

Kasb tanlashga ta'sir qiluvchi psixologik determinantlar. Kasb tanlash jarayoni insonning hayotidagi muhim qarorlardan biridir va bu qaror ko'plab psixologik determinantlarga bog'liq. Quyida ushbu determinantlarning asosiylari yoritiladi:

a) Motivatsiya

Yoshlarning kasb tanlashdagi ichki istaklari va maqsadlari ularning yo'nalishini belgilaydi. Uyushmagan yoshlar ko'pincha aniq maqsadga ega bo'lmagani sababli, ularda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi murakkab kechadi.

b) O'zini anglash (shaxsiy identifikatsiya)

Inson o'z qobiliyatlarini, kuchli va zaif jihatlarini anglagan sari, unga mos kasb tanlashi osonlashadi. Bu jihatdan psixologik testlar, professional maslahatlar, o'zini sinab ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

c) O'ziga bo'lgan ishonch

Past o'ziga ishonch darajasi yoshlarni faol harakatdan, tanlov qilishdan, sinovlardan qochishga undaydi. Bu esa ularning mehnat bozoriga kirishini qiyinlashtiradi.

d) Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

Oila, do'stlar, maktab yoki mahalla muhitining qo'llab-quvvatlashi yoshning qaror qabul qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu qo'llab-quvvatlash

yetishmasa, yosh o'zini jamiyatdan chetda his qilishi mumkin.

e) Shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy kutishlar

Ba'zan yoshlar o'zlari istagan emas, balki atrofdagilarning kutishlariga mos kasbni tanlaydi. Bu esa ularning ichki qoniqishiga, kasbiy muvaffaqiyatiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlashda psixologik yondashuvlar:

- Kasbiy orientatsiya bo'yicha treninglar

Yoshlar uchun maxsus treninglar tashkil etish — ular o'zlarini kashf etishlari va turli kasblar bilan tanishishlari uchun zarur muhitni yaratadi.

- Psixologik maslahat (konsultatsiya)

Malakali psixologlar tomonidan individual konsultatsiyalar berilishi, yoshlarning shaxsiy imkoniyatlarini tushunishlariga yordam beradi.

- Rol o'yinlari va simulyatsiyalar

Kasbiy faoliyatni imitatsiya qiluvchi mashg'ulotlar yoshlar uchun real tajriba bo'lib xizmat qiladi. Bu ularning kasb haqida real tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

- Kasbiy qiziqish va qobiliyatlarni aniqlovchi testlar

Masalan, Holland yoki Shindler testlari yordamida yoshlarning qiziqish doirasi va qobiliyatlari aniqlanib, mos kasblar tavsiya etilishi mumkin.

Mehnat bozoriga moslashuv va natijalar. Yoshlar o'z psixologik xususiyatlariga mos kasb tanlab, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirgan sari mehnat bozorida muvaffaqiyatli integratsiyalashadi. Natijada:

- Bandlik darajasi oshadi,
- Ijtimoiy faollik kuchayadi,
- Jinoyatchilik va salbiy ijtimoiy xatti-harakatlar kamayadi,
- Yoshlar o'z hayotidan mamnun bo'lishadi.

Ushbu tadqiqot uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida psixologik determinantlarning rolini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy-tadqiqot ishining umumiy metodologik asoslari, maqsad va vazifalari, tadqiqot usullari hamda tanlangan respondentlar to'g'risidagi

ma'lumotlar yoritilgan.

Tadqiqotning maqsadi: uyushmagan yoshlarning kasb tanlashiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni samarali yo'naltirish bo'yicha psixologik asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: uyushmagan yoshlar (16–25 yosh oralig'ida, o'qimaydigan va ishlamaydigan yoshlar).

Tadqiqotning predmeti: yoshlarning kasb tanlashiga ta'sir qiluvchi psixologik determinantlar (motivatsiya, o'zini anglash, qiziqish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shaxsiy qadriyatlar va boshqalar).

Tadqiqot metodlari:

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar, psixologik nazariyalar va ilg'or tajribalar o'rganildi.

Kasb tanlash psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va yoshlar psixologiyasiga doir manbalar tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot usullari:

1. So'rovnoma (anketlash)
 - 100 nafardan ortiq uyushmagan yoshlar orasida ijtimoiy-psixologik omillar va kasbiy yo'nalishlar bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi.
 - Savollar motivatsiya, o'ziga ishonch, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, qiziqishlar kabi mezonlarni qamrab oldi.
2. Psixologik testlar
 - Holland kasbiy yo'nalishlar testi — respondentlarning shaxsiyati va kasbiy qiziqishlar mosligini aniqlash uchun;
 - Motivatsion yo'naltirish testi — ichki va tashqi motivatsiya darajasini o'lchash uchun;
 - Self-esteem (o'zini baholash) testi — o'ziga bo'lgan ishonch darajasini aniqlash uchun qo'llanildi.
3. Suhbat (intervyu)
 - Qisman strukturalangan intervyular orqali yoshlarning kasb tanlashdagi ichki mulohazalari va psixologik holatlari chuqur o'rganildi.

4. Kuzatuv

- Mahalliy markazlar va bandlik agentliklari orqali yoshlarning real hayotdagi faoliyatlari va ijtimoiy muhitdagi holatlari kuzatildi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari:

- So'rovnomalar va test natijalari statistik (foizli) tahlil qilindi.
- Javoblar guruhlar kesimida (jins, yosh, hududiy farqlar) taqqoslandi.
- Test natijalari asosida psixologik xulosalar chiqarildi.

Agar uyushmagan yoshlar psixologik jihatdan to'g'ri yo'naltirilsa kasbga ega bo'ladi, ijtimoiylashadi, o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi, mehnat bozorida faollashadi, jinoyatchilik va ijtimoiy beqarorlik kamayadi.

Uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga samarali yo'naltirish va ularning mehnat bozoriga moslashuvini ta'minlashda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1) Psixologik yo'naltirish tizimini takomillashtirish

Har bir hududda uyushmagan yoshlar bilan ishlovchi kasbiy psixologlar shtati joriy etilishi lozim.

Maktabdan tashqari yoshlar bilan ishlovchi muassasalarda kasb tanlashga oid psixologik treninglar, testlar va konsultatsiyalar muntazam tashkil etilishi kerak.

2) Motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish

Uyushmagan yoshlar uchun motivatsion seminarlar, muvaffaqiyatli insonlar bilan uchrashuvlar, kasbiy motivatsiyani oshiruvchi loyiha va tanlovlar yo'lga qo'yilishi lozim.

Ularning real hayotdagi qiziqishlariga mos mini-stajirovkalar (ishlab ko'rish imkoniyati) tashkil etilishi, ular orqali kasblar bilan amaliy tanishish imkoniyatini berish taklif etiladi.

3) Kasb tanlashga oid psixologik diagnostika tizimini joriy etish

Uyushmagan yoshlar uchun psixologik qobiliyat va qiziqishlarni aniqlovchi maxsus test tizimlari ishlab chiqilishi va bepul foydalanish imkoniyati yaratilishi zarur.

Masalan: Holland modeli, Shindler testi, Mehrabian testi kabi vositalar mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda qo'llanishi mumkin.

4) Oila va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish

Ota-onalar, mahalla faollari va yoshlar bilan ishlovchi ijtimoiy xodimlar uchun ma'rifiy treninglar o'tkazilib, ular yoshlarning kasb tanlashdagi roli haqida xabardor qilinishi lozim.

Uyushmagan yoshlar bo'yicha mahalliy monitoring tizimi yo'lga qo'yilib, ularning holati doimiy kuzatilib borilishi kerak.

Xulosa. Ushbu maqolada uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda psixologik determinantlarning o'rni chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasb tanlash jarayonida motivatsiya, o'zini anglash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shaxsiy qiziqish va qadriyatlar kabi psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uyushmagan yoshlarning bandligini ta'minlashda faqat tashkiliy choralar emas, balki chuqur psixologik yondashuv zarur. Shuning uchun kasbga yo'naltirish tizimida individual yondashuv, psixologik maslahatlar, kasbiy diagnostika va ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimova Z.M. Kasb tanlash psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Erkaboyeva D.X. Yoshlar psixologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Holland J.L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. — Psychological Assessment Resources, 1997.
4. Xamidov N.S. Psixologik maslahat va kasbga yo'naltirish asoslari. — Samarqand, 2019.
5. MHEO (2022). O'zbekiston yoshlari bandlik darajasi bo'yicha statistik ma'lumotlar. — www.stat.uz

6. Super D.E. The Psychology of Careers: An Introduction to Vocational Development. — New York: Harper & Row, 1957.